


UZBEKISTAN AIRWAYS

INFLIGHT MAGAZINE

July, 2022

#03



06

Abadiy shahar -
ZAMONAVIY HUDUDDA
ASRLAR SADOSI

The enternal city - AN ECHO OF THE AGES
IN A MODERN AREA OF SAMARKAND

22

Bolalar bilan
SAYOHAT

Traveling
WITH CHILDREN

24

Samarqand xalqaro
AEROPORTI

Samarkand
INTERNATIONAL AIRPORT



OLMAZOR

SAVDO MARKAZI

BUY COMMERCIAL PROPERTY
WITH A READY TENANT IN
«OLMAZOR BUSINESS
CENTER» AND GET A STABLE
INCOME.

INVEST IN CAPITAL DEVELOPMENT
CHOOSE BIZNING UYLAR
DEVELOPMENT.


OLMAZOR SAVDO MARKAZIDAN
TAYYOR IJARACHILARGA EGA
TIJORAT JOYLARINI SOTIB OLING
VA BARQAROR DAROMADGA EGA
BO'LING.

KAPITALINGIZNI RIVOJLANTIRISHGA
SARMOYA QILING BIZNING UYLAR
DEVELOPMENT KOMPANIYASINI
TANLANG.



WWW.BIZNINGUYLAR.UZ

📞 71 210-44-44





DreamCity
DEVELOPMENT

TAYYOR IJARA
BIZNESI

ESTABLISHED RENTAL
BUSINESS

FOYDALI LAHZANI BOY
BERMANG!

10% DAN FOYDALI
MUDDATLI TO'LOV

INITIAL INSTALLMENT
STARTING FROM 10%

IT'S TIME TO DO THE MOST
PROFITABLE INVESTMENT!



71 202-22-22 / www.dreamcity.uz

Uzbekistan Airways

Bort jurnali Inflight Magazine

#03, July, (108) 2022

Tahririyat kengashi raisi
Chairman of the Editorial Board

Umid Xusanov

Bosh muharrir
Editor-in-Chief

Yulduz Latipaeva

Dizayn va sahifalovchi
Design & Layout

Nodira Shoxizindayeva

Tahririyat jamoasi
Editorial team

Ozoda Azimova
Kamola Ikramova
Bahodir Imomjonov
Matluba Kuliyeva
Jamoliddin Hamdamov

Tarjimon
Interpreter

Javokhir Kamolov

Foto
Photo

Ernest Kurtveliev

Reklama bo'yicha murojaat:

For advertisement:

+998 78 140-45-20
+998 78 140-45-21

Manzil:

Amir Temur shohko'chasi, 41, Toshkent, 100015,
O'zbekiston

Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

1993-yildan beri nashr etiladi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyati

Address:

Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan

Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

Published Since 1993 Publisher – JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligida
03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information
Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration
number No 0115



«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop
etilgan. Buyurtma № 685 Adadi 10 000
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani,
Mirobod ko'chasi, 41/2 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order # 685 Circulation - 10 000
Address: 41/2, Mirabod st. Tashkent

MUNDARIJA

CONTENTS

06 | Abadiy shahar -
zamonaviy hududda
asrlar sadosi

14 | Turon yo'lbarси nega
yo'qolgan?

17 | Ijodiy hayot markazi -
san'at, hunarmandchilik
va dizayn

22 | Bolalar bilan sayohat

24 | Samarqand xalqaro
aeroporti

28 | Samarqandga tashrif
buyurish uchun 5 sabab

08 | The enternal city - an echo
of the ages a modern area of
Samarkand

15 | Why is the turonian tiger
missing?

19 | The epicenter of creative life
is art, craft and design

23 | Traveling with children

26 | Samarkand international
airport

28 | 5 reasons to visit
Samarkand

Hurmatli yo'lovchilar!

Sizni havo kemasi sahnida ko'rib turganimizdan mammunmiz E'tiboringizga Uzbekistan Airways bort jurnalining navbatdagi sonini taqdim etamiz Ushbu son eng qiziqarli, tarixiy va butun dunyoga mashhur Samarqand shahriga bag'ishlangan. Unga ortiqcha ta'rif kerak emas, chunki har yili juda ko'plab sayyohlar aynan shu yerga tashrif buyurishadi. U o'zining noyob madaniy va tarixiy diqqatga sazovor joylari bilan dong taratgan. Yirikligi va ahamiyati jihatidan O'zbekistonning ikkinchi shahri hisoblangan Samarqand, bugungi kunda jadal rivojlanib, o'zining zamonaviy diqqatga sazovor joylariga ham ega bo'lmoqda. Joriy yilda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi uchun ikkinchi xabga aylanishi kerak bo'lgan yangi zamonaviy xalqaro aeroport ishga tushirildi. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish va yo'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, Uzbekistan Airways Samarqand shahridan yangi mahalliy yo'nalishlar bo'yicha muntazam qatnovlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Samarqanddan Toshkent, Urganch, Namangan va Farg'ona shaharlariga muntazam qatnovlar amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, Samarqandning yangi aeroporti xalqaro parvozlar geografiyasini kengaytirishga imkon beradi.

Sizni zamonaviy O'zbekiston bilan tanishtirishda davom etar ekanmiz, ushu sonda biz tarix zamonaviylik bilan uyg'unlashib borayotgan qadimgi va hamisha navqiron Samarqand haqida siz aziz yo'lovchilarimizga so'zlab berishga qaror qildik.

Sizga maroqli parvoz tilaymiz!



Dear passengers!

Uzbekistan Airways company welcomes you on board. We are happy to present you the next edition of Uzbekistan Airways inflight magazine. We dedicate this issue to the most interesting, historical and world-famous city of Samarkand. It does not need special introductions, since it is visited by a huge number of tourists every year. It is famous for its unique cultural and historical sights. However, today Samarkand, being the second largest and most important city in Uzbekistan, is dynamically developing and has its modern significant places. This year, a new modern international airport was put into operation here, which is designed to become the second hub for Uzbekistan Airways. In order to develop domestic tourism in Uzbekistan and for the additional convenience of passengers, Uzbekistan Airways is planning to operate regular flights to new local destinations from the city of Samarkand. There will be regular flights from Samarkand to the cities: Tashkent, Urgench, Namangan and Fergana. Moreover, Samarkand International Airport will expand the geography of international flights. Continuing to acquaint you with modern Uzbekistan, in this issue we decided to explore and share with readers about Samarkand, where history harmoniously coexists with modernity. We wish you a pleasant flight!



The easiest decision of your trip.



Delivering the exceptional stay you deserve,
everywhere you want to be.

Intuitively designed for both function and comfort, it's our priority to give you a seamless experience – every time. With a variety of amenities you can count on, you'll have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton Tashkent
17, Istiqbol str.
Tashkent, Uzbekistan,
100047
+998712052200
<http://hampton.com/>

- Free, hot breakfast
- Restaurant and Lobby Bar
- Modern fitness center 24/7
- Business center 24/7
- Meeting facilities
- Free Wi-Fi

With 2,700 locations across the globe, wherever and whenever you stay with us you'll be welcomed with a warm smile and thoughtful service that makes you happy – because that's what makes us happy. **That's the 100% Hampton Guarantee™**

ABADIY SHAHAR

- ZAMONAVIY

HUDUDDA ASRLAR

SADOSI



Joriy yilning yozida Samarqandda nafaqat ushbu shahar, balki butun mamlakat uchun ahamiyatli bo‘lgan Silk Road Samarkand loyihasi yakunlanib, foydalanishga topshiriladi.

Mualliflarning rejasiga ko‘ra, bu jahon miqyosidagi kurort, butun Markaziy Osiyorning eng yirik dam olish majmuasiga aylanadi. Mehmonxonalar, istirohat bog‘lari, dam olish zonalari, kafe va barlar, madaniyat maskanlari, eko-qishloqlar. Xalqaro me’morlar va muhandislar jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha turli mavzudagi zonalarni yagona me’moriy ansamblga birlashtirish imkonini beradi. Bu yerda, shuningdek, mehmonlarga qulay va shinam majmuadan chiqmay turib an’anaviy qadimiy

hunarmandchilik haqida ma’lumot olish imkoniyati yaratilgan. Bu – 10 hektar yer maydonini egallagan “Abadiy shahar” hunarmandchilik markazidir. Bu yerda miniatyura, misga o‘yib naqsh tushirish, yog‘ochga naqsh solish, kalligrafiya, kashtachilik, xonatlasdan milliy kiyimlar tikish, sopol idishlar ishlash, gilam to‘qish ustalari ishlaydigan 50 ga yaqin xona yaratiladi. Shuningdek, bu yerda yozgi va qishki restoranlar bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Qurilish davomida ustalar yangi binolarni o‘ymakorlik naqshlari, an’anaviy ganchkorlik namunalari tushirilgan ustunlar bilan bezashmoqda, polga mayolika va koshin plitkalar yotqizilib, devorlarga an’anaviy Samarqandcha uslubda bezak berilmoqda.

Loyiha muallifi va rahbari mahalliy urf-odat va an'analarni yaxshi biladigan, mashhur rassom Bobur Ismoilov. Rassom zamonaviy mehmonxonalar barobarida ming yillik ro'yo ichida an'anaviy me'morchilik namunalari asosida yaratilgan, rassomlar, hunarmandlar va ustalar ishlayotgan, do'konlar va bozorlar, yangi yopilgan non isi, musiqa va albatta, olivjanob shaharning hurmatli aholisi bilan to'lgan, o'rta asrlarga xos sharqona shahar qad ko'tarishini faraz qildi. Bu Samarqand tarixi va uning azaliy ildizlari hamda an'analariga bir nazar.

- Loyiha murakkab, chunki shu vaqtga qadar bu kabi loyiha hali amalga oshirilmagan. Bu yerda siz ko'ngilochar attraksionlar yoki kinoteatrлarni uchratmaysiz, kiyim-kechak do'konlari ham yo'q. Loyihaning maqsadi O'zbekistondagi hunarmandchilik, tasviriy san'at, an'ana va urf-odatlarning rang-barang ko'rinishlari bilan tanishtirishdan iborat. Shuningdek, O'zbekistonning milliy oshxonasi ham keng ko'lamma taqdim qilingan. Bu majmua ko'ngilochar maqsadlardan ko'ra ma'lumot berish va madaniy maqsadlarni aks ettiradi, – deydi muallif



Majmua, xususan, Abadiy shahar ijodkorlarining ishonchi komilki, bu mamlakatda turizmni rivojlantirishga katta turtki bo'ladi, chunki bu yerda mehmonlar jonli muloqot tarzida xalqimizning boy madaniyatiga guvoh bo'ladilar. Bu loyiha g'oyasi davlatimiz hukumati tomonidan darhol qo'llab-quvvatlandi, va bu narsa ijodkorlar – o'z ishining ustasi bo'lgan konstruktor, me'mor, rassomlardan iborat ulkan jamoa zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Abadiy shahar – bu obida emas, balki buyuk ajdodlarning merosxo'rlari tomonidan bunyod etilgan jonli, tiklangan tarixdir.

- Samarqand tarixan va madaniy jihatdan dunyodagi eng yorqin va boy shaharlardan biri bo'lib, u yana ko'plab sayyohlar oqimi bilan ham mashhurdir. Shuning uchun mening fikrimcha, Abadiy shahar majmuasi aynan shu yerda bunyod etilishi kerak edi, – deya ta'kidlaydi Bobur Ismoilov.

Fotosuratlar Silk Road Samarkand matbuot xizmati tomonidan taqdim etilgan

THE ETERNAL CITY - AN ECHO OF THE AGES IN A MODERN AREA OF SAMARKAND

In summer of the current year, the Silk Road Samarkand project in Samarkand, significant not only for the city, but also for the whole country, will be completed and start working. It is intended to become the largest touristic complex in all of Central Asia which will include hotels, parks, recreation areas, restaurants, cafes and bars, objects of cultural significance, eco-village.

Developed by an international team of architects and engineers, the project will combine different thematic zones all in one architectural ensemble. The guests will also be able to learn about traditional ancient crafts on the site at the 10-hectare Eternal City craft center. There are about 50 rooms in the craft center where masters of lacquer miniatures, copperplate embossing, woodcarving, calligraphy, embroidery, khan-atlas dressmaking, ceramics, carpet weaving can be found at work. There is also a market, summer and winter restaurants.



During construction, masters decorate new buildings with carved beech columns, traditional plaster stucco, put tiles and majolica, painted walls in the traditional Samarkand style.



The author and curator of the project is the famous artist Bobur Ismoilov, who is well known for his local authenticity. Against the backdrop of modern hotels, the artist presented how a medieval eastern city emerges from the mirage of millennia, combining examples of traditional architecture, inhabited by artisans, artists and craftsmen, with shops and markets, the smell of freshly baked bread, music and, of course, the noble city dignitaries. It is a kind of reference to the history of Samarkand, its ancient origins and traditions.



-The project is unique and has no similar precedents. There will not be any entertainment attractions, cinemas or clothing stores. The aim of the project is to present the whole rich palette of crafts, fine arts, traditions and customs of Uzbekistan, as well as national cuisine of Uzbekistan. As the author shares, this complex serves more the cognitive and cultural purposes rather than entertainment ones.

The creators of the complex and, in particular, the Eternal City believe that it will give a powerful impetus to the development of tourism in the country, as here guests can plunge into the rich culture of our people in a format of live dialogue. The idea of this project was immediately supported by the authorities of the country, and it imposes a great responsibility on the creators - a huge team of masters, virtuosos of their craft, designers, architects and artists. After all, the Eternal City is not a monument, but a living history, embodied by the heirs of the great ancestors.

-Samarkand is one of the most colorful and historically and culturally rich cities in the world, and at the same time, the most visited by tourists. Therefore, I strongly believe that Samarkand is the place where the Eternal City complex should have emerged, - says Bobur Ismoilov.

The images are provided by Silk Road Samarkand press-office



أُبِي حَيْوَت

Obi Hayot Restaurant -

is a piece of the charming East.

Bright, harmonious, rich!
Give in to temptation, enjoy the food,
feel the taste of life, and rest your soul.
Be our guest.

4 Dzharkurganskaya st.
+998 97 350 88 88

obihayotrest
 obi_hayot



12 IYUL - BUTUNJAHON BORT KUZATUVCHILARI KUNI


Bugungi kunda Uzbekistan Airways kompaniyasida turli millatga mansub **800 ga yaqin** bort kuzatuvchilar faoliyat yuritishadi. Ularning asosiy vazifasi yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash, parvoz davomida ularga xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

Aziz bort kuzatuvchilar, parvozingiz hamisha muvaffaqiyatli bo'lsin!

THE WORLD FLIGHT ATTENDANT DAY JULY 12

As of today, there are about **800 flight attendants** of different nationalities in Uzbekistan Airways company. Their main task is the safety of passengers, service during the entire flight.

We wish you to enjoy your work and let the number of takeoffs be equal to the number of landings!



safety • stability • comfort



SOVG'ALAR DUNYOSI DO'KONI

30 yildan buyon shahar aholisiga va shahrimiz mehmonlariga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Bizning do'konimizda siz istagan sovg'ani xarid qilishingiz mumkin.



THE GIFT WORLD

The store has been open in Tashkent for 30 years.
You can always find a perfect gift for you and
your beloved in our store

Mirpodarkov2525
 Mirpodarkov@mail.ru

97 750 25 25
 71 268 19 69

TURON YO'LBARSI NEGA YO'QOLGAN?


Samarqandning mashhur Sherdor madrasasi peshtoqida, qadimiy gilamlarda, hattoki O'zbekistonning milliy valyutasida tasvirlangan yo'lbars rasmi qadimdan Turon zaminida yo'lbarslar yashaganidan darak beradi.

Iskandar Zulqarnayn haqidagi asarlarda yozilishicha, O'rta Osiyonidagi istilo qilgan va Sirdaryo bo'yida Aleksandriya Esxata (hozirgi Xo'jand) shahrini qurbanidan keyin Sirdaryo ortidagi kam aholili joyga yurish qilib, hozirgi Toshkent shahri atroflarida yo'lbarslarni ovlagan.

XIX asrda Turon yo'lbarsining soni 10 mingga yaqin bo'lgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa u butunlay qirib tashlandi. O'rta Osiyoda yo'lbarslar populyasiyasining keskin kamayib ketishi Chor Rossiyasi tomonidan bu yerga qo'shincharning jo'natilganidan keyin kuchaygan.

Masalan 1883-yilning 27-fevral kuni Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining shtab boshlig'i mahalliy aholining iltimosiga binoan Toshkent bilan Chinoz o'rtaida paydo bo'lib qolgan yo'lbarslarga qurshov uyuştirish buyrug'ini bergan. Bu buyruqnı bajarish uchun doimiy harbiy qismlardan, aniqrog'i 12-Turkiston batalyonidan foydalanilgan. Asosiy sabablardan yana biri to'qayzorlarning kesilib, orniga paxta eklishi bo'ldi. Natijada yo'lbarsning asosiy ozuqasi bo'lgan tuyoqlilar soni keskin kamaydi. Shuningdek, dehqonlarning havfsizligini ta'minlash maqsadida yo'lbarslar o'dirilila boshlandi.

Dunyoda 7 ta yo'lbars turi mavjud: Amur, Xitoy, Sumatra, Yava, bash, hind (Bengal) va Turon. Turon yo'lbarsi Amur yo'lbarsidan keyin ikkinchi orinda turadigan eng yirik yirtqichdir. Uning uzunligi 180-280 sm, dumi 90 sm, og'irligi esa 220-300 kg.



Harakatchanligi oqshom tushishi bilan tonggacha bo'lgan. Turon yo'lbarsi asosan Amudaryo deltasidagi to'qayzorlarda, changalzorlarda, balandligi 4-7 metr keladigan qalin qamishzorlar orasida yashagan. Turkistonda yo'lbars mardlik, jasurlik ramzi sifatida e'zozlangan.

Aslida Turon yo'lbarsi hech qachon birinchi bo'lib odamga tashlanmagan. Faqat quvg'inga uchraganda, yaralanganda himoyalanish maqsadida hujum qilgan. Suvda yaxshi suzgan, faqtgina qorong'u tushganda

ovga chiqqan. Yo'lbars bir yilda ikki marta bolalab, odatda 2-4 bola tuqqan. Yo'lbarschalar tug'ilganda 1,3-1,5 kg bo'lib, 6-8 kundan keyingina ko'zi ochilgan.

1948-yilda chop etilgan "Охота и рыбалка" jurnalida qayd etilishicha, Qoraqalpog'istonning Qorovulqum tumanida oxirgi Turon yo'lbarsi 1947 yilda ovchi S.Myakishev tomonidan otib o'dirilgan. Hozirda Turon yo'lbarsini

inson aybi bilan yo'q bo'lib ketgan jonivorlarning ro'yxatidan iborat bo'lgan Qora kitobda va qotirilgan nusxalarini esa Qoraqalpog'iston madaniyati va tarixi muzeysi, Toshkentdagi tabiat muzeysi hamda Samarqand davlat universiteti zoologiya muzeylaridagina ko'rish mumkin.

2017-yili Qozog'istonda yo'lbarsni qayta tiklash uchun reintroduksiya dasturi ishga tushirilib, buning uchun 2018-yili Olmaota viloyatining Balxash tumanida "Ile-Balxash" tabiiy rezervati ochildi. Yo'lbarsni uning DNKsi va Amur yo'lbarsi chatishmasidan "tiriltirish" ko'zdautilgan. Umid qilamizki, olimlarning sa'y harakati bilan Turon yo'lbarsi yana Turon zaminiga qaytadi.



WHY HAS TURONIAN TIGER GONE MISSING?

The image of the tiger on the facade of famous Sherdor Madrasah in Samarkand, on ancient carpets, and even on the national currency of Uzbekistan shows that tigers have long lived in the land of Turan.

In the papers about Alexander the Great it is written that he invaded Central Asia and after building the city of Alexandria Eshkata (now Khujand) on the banks of Syr Darya river, he then went to a sparsely populated area beyond Syr Darya and hunted for tigers in the vicinity of what is now Tashkent.

In the 19th century, Turonian tiger numbered about 10,000 species and by the second half of the 20th century it has been completely exterminated. Sharp decline of tiger population in Central Asia intensified after the tsarist Russia sent their troops here.

For example, on February 27, 1883 the Chief of Staff of the Troops of Turkestan Military District, upon request of local residents, ordered to besiege the remaining population of tigers inhabiting the area between Tashkent and Chinoz. Regular military units, more specifically the 12th Turkestan Battalion, were used to carry out this order. Another major reason was that the weeds were cut down and replaced with cotton looms. As a result, the number of ungulata which are the main food source for tigers, reduced sharply. Also, tigers were killed in order to ensure safety of peasants.

There are seven subspecies of tigers in the world: Amur, Chinese, Sumatran, Javanese, Indian (Bengal) and Turanian. Turonian tiger is the largest predator, second only to the Amur tiger. Its body's length is 180-280 cm, its tail is 90 cm long, and its weight is 220-300 kg. It is active from dusk till dawn. Turonian tiger mainly lived in Amu Darya's delta in the dense reeds that were up to 4-7 meters high.

In Turkestan the tiger was revered as the symbol of courage and bravery. As a matter of fact, Turonian tiger was never the first to attack the human. It only did so to defend itself when being

chased or wounded. It was a good swimmer, and only went hunting at nightfall. The tiger calved twice a year, usually giving birth to 2 to 4 cubs. Tiger cubs weigh 1.3-1.5 kg at birth, and their eyes open only 6-8 days later.

"Hunting and Fishing" magazine published in 1948, mentioned that the last Turanian tiger in Karaul-Kum district of Karakalpakstan was caught in 1947 by a hunter who was later on executed by Myakishev.

Currently, Turanian tiger can be found in the Black Book which contains the list of animals that became extinct through the fault of humans, and as lifetime exhibits at the Museum of Culture and History of Karakalpakstan, the Museum of Nature in Tashkent and Zoological Museum of Samarkand State University. In 2017, reintroduction program was launched in Kazakhstan to restore the tiger, for which the Ile-Balkhash Nature Reserve was opened in Balkhash district of Almaty region in 2018. The tiger is supposed to be "resurrected" from crossing its DNA with Amur tiger's DNA. We hope that with the efforts of scientists, Turanian tiger will return to the land of Turan again.




HAMYON UCHUN

FOYDA BILAN SAYOHAT QILING!

Aviachipta sotib olayotganda mablag'ni qanday tejash mumkin?

BIZ BILAN JUDA OSON →

EASYBOOKING.UZ – uydan chiqmasdan turib, onlayn tarzda arzon aviachiptalarni mustaqil sotib olish, mehmonxonalarini va tayyor turlarni bron qilish uchun qulay zamonaviy yechimidir



500 dan ortiq aviakompaniyalar, yirik loukosterlar va charter tashuvchilarining parvozları uchun chiptalar



900 dan ortiq shaharda tashuvchi kompaniyalardan to'g'ridan-to'g'ri transferlar mavjud



Ishonchli yetkazib beruvchilardan butun dunyo bo'ylab 500 ming mehmonxona

2022-YIL YOZI UCHUN ENG YAXSHI SAYOHAT YO'NALISHLARI

GRUZIYA

14 kun
1 186 USD

TURKIYA

9 kun
956 USD

VYETNAM

11 kun
от 1 263 USD



Ijodiy hayot markazi – san'at, hunarmandchilik va dizayn



Qadim zamonlardan Samarqand butun dunyoga badiiy hayat va yorqin ijodiy g'oyalalar boyligi bilan mashhur bo'lgan.

Uzoq 1992-yilda ishtiyoqli ishqibozlar jamoasi Samarqand shahar zallarida turli ko'rgazmalarni o'tkazishni boshladi. Loyiha shaharning ijodiy muhitida ko'rgazmalar va boshqa yorqin tadbirlar yo'qligi haqida tushuncha paydo bo'lgandagina shakllandi.

Shunday qilib, Aysel galereyasi paydo bo'ldi. U Samarqand sayyoqlik markazida chet ellik mehmonlarni jalg qilish va ularni mahalliy rassomlarning ijodiy g'oyalari bilan tanishtirish maqsadida ochilgan. Samarqand ustalarining asarlari sayohatchilar bilan mashhur bo'lib, ijodkorlarni yangi g'oyalarni izlashga ilhomlantirdi. Ammo galereya erishilgan natijalar bilan to'xtab qolmadи, tajribalar o'tkazib, yangi g'oyalarni izlashda davom etdi.

Shunday qilib, Rishton kulolchilari, muzey xodimlari bilan hamkorlik boshlandi, tarixiy materiallar va fotosuratlar, to'qimachilik texnikasi o'rganildi. Ijodiy studiya tomonidan Samarqand paxta matosiga gul bosish, keyinchalik esa ipakka gul bosish texnikasi qayta tiklandi. Ustalar mashhur va deyarli unutilgan xalq andozalariga ko'ra matolarni qayta ishslash va bezash mexanizmdan foydalanishni boshladilar.

Galereyaga tashrif buyuradigan xorijliklar o'zlarini uchun O'zbekiston madaniyati va uning badiiy dunyosi haqida yangi bilimlarga ega bo'ladi. Ular O'zbekiston rassomlarining ijodi va xalq an'analari, urf-o'datlari va hayotiga qiziqish bildiradilar. Bundan tashqari, sayyoqlar galereyaning asosiy va uzoq muddatli qarashlari – tabiiy matolar va materiallardan foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarish bilan qiziqishadi.

To'qimachilik, etnografik izlanishlar, batik texnikasining rivojlanishi va an'anaviy gul bosishning qayta tiklanishi tufayli Markaziy Osiyoning xalq etnografik an'analariga asoslangan Orient - Etnik uslubidagi badiiy kiyimlar paydo bo'ldi. Kiyimlar an'anaviy milliy texnologiyalar va o'tgan asrda yaratilgan matolardan foydalangan holda yaratilgan.



Alfiya Valiyeva, Aysel ijodiy guruhi rahbari:

- Bizning ishimiz an'anaviy to'qimachilikdan kiyim modellarini yaratish emas. Dizaynerlar, rassomlar, kuratorlarni o'z ichiga olgan Aysel jamoasi turli yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Biz madaniy muhit yaratamiz, tadbirlar tashkil qilamiz, ko'proq san'at turlarini qamrab olamiz.

Chet ellik mehmonlar Sharq madaniyati va axloqiga har doim qiziqish bilan munosabatda bo'lishadi. Ular buyumlarni yorqin ranglari, samarqandlik ustalarning qo'l mehnati va, albatta, ekologik tozaligi bilan qiziqishmoqda. Galereya faoliyati davomida ko'rgazmalar asosan Samarqandda bo'lib o'tdi, ammo vaqtı-vaqtı bilan uzoq va yaqin xorijdan takliflar kelib tushmoqda. Galereya bir necha bor rassomlarning rasmlarini yoki to'qimachilik to'plamlarini chet elda namoyish qilish uchun yuborgan. Ayni paytda galereya rossiyalik hamkasblar, galereyachilar va dizaynerlar orasida sharqona liboslar muxlislari uchun ko'rgazma tashkil etishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, tayyor to'qimachilik nusxasini yaratishni iloji yo'q, bu yerdagi har bir model noyobdir. Bundan tashqari, haqiqiy san'at buyurtma asosida amalga oshirilmaydi va Aysel galereyasi – cheksiz ijodiy g'oyalari oqimidi.





The epicenter of creative life is art, craft AND design

Since ancient times Samarkand was famous throughout the world for the richness of artistic life and bright creative ideas.

Back in 1992, a team of courageous enthusiasts began to hold various exhibitions in the halls of Samarkand. The project finally took shape when the realization came that the creative environment of the city lacked exhibitions and other vibrant events.

This is how Aysel Gallery came into being. It opened in the tourist center of Samarkand to attract foreign visitors and introduce them to the creative ideas of local artists. The works of Samarkand artists were popular with travelers, which inspired the creators to explore new ideas. The gallery did not stop there, but began to experiment with the format and open new horizons.

Thus, collaboration with Rishtan ceramists and museum workers began, they studied historical materials and photographs, as well as textile-making techniques. The creative studio restored the Samarkand embroidery on cotton, and later they recreated the technique of embroidery on silk. Masters began to use the mechanism of processing and decorating fabrics, both known and almost forgotten folk recipes.

Foreigners who visit the gallery gain new knowledge about the culture of Uzbekistan and its artistic world. They are interested in the works of Uzbek artists and the folk traditions, rules, rituals and everyday life of people. In addition, tourists are attracted by the main and long-standing principle of the gallery - the use of natural fabrics and materials, environmentally friendly production.



Thanks to textile, ethnographic searches, development of batik technique and revival of traditional embroidery, the line of Etnika - Orient art clothing appeared, which is based on folk traditions of Central Asia. The clothes are created with the use of traditional national technologies and using the fabrics created in the last century.

Alfiya Valieva, head of Aysel creative group:

- Our work is not just creating clothing models from traditional textiles. Aysel team, includes fashion designers, artists and curators as well. We work in different directions, creating a kind of cultural environment, organizing events, covering more kinds of art. Foreign guests always react with interest to the culture and ethnicity. They are interested in expressive and bright colors, handmade by Samarkand craftsmen and, of course, ecology.

Gallery holds exhibitions mainly in Samarkand, but periodically they receive invitations to distant and near abroad. The gallery has repeatedly exported artists' paintings or textile collections to be shown abroad. At the moment, the gallery plans to create an exhibition for fans of oriental clothing with Russian colleagues, gallerists and designers. In this case, to make a copy of the finished textile, it is impossible, here each model is unique. All the more, real art cannot be made by order, and Aysel Gallery is an endless stream of creative ideas.

Darya Penzova

NOBILE
MEDITERRANEAN
RESTAURANT

Nobile Restaurant -

is a combination of elegance in the interior and an impeccable menu, that satisfies the tastes of the most sophisticated gourmets.
Extremely hard to resist...

332 Abdullah Kadiri st.
+998 94 628 88 88

nobile.uz

nobile.uz

BOLALAR

BILAN

SAYOHAT

Yoz – bu dam olish va sayohat vaqt. Maktablar allaqachon bolalarni yozgi ta'tilga jo'natgan, bu esa butun oilangiz bilan sayohatga borishingiz uchun imkoniyat. Uzbekistan Airways qatnovlaridan bolalar kichik yoshligidan foydalanishni boshlashganligi sababli, siz uchun farzandlaringiz bilan dam olishni rejalashtirishingizga yordam beradigan barcha muhim ma'lumotlarni tayyorladik.

Avvalo, aviachiptalarni xarid qilish kerak. Kichik maslahat – aviachiptalarni parvozdan bir necha hafta oldin oling, shunda siz o'zingiz uchun eng mos tarifni tanlashingiz mumkin.

Uzbekistan Airways aviaqatnovlarida bolalar uchun yosh chegarasi yo'q. Bolalar uchun aviachiptalarning ikkita alohida tarifi mavjud: 2 yoshgacha va 2 dan 12 yoshgacha.

2 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan parvoz

Bunday aviachiptalar katta yoshdagagi aviachiptalar narxining atigi 10% tashkil qiladi. Chaqaloq uchun alohida o'rindiq taqdim etilmaydi, chunki ko'pincha ikki yoshgacha bo'lgan bolalar ota-onalarini qo'lida o'tirib sayohat qilishadi. Aviachipta narxiga bepul bagaj normasi – 10 kg (Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlarida – 5 kg) va qo'l yuki – 8 kg gacha kiradi.

Agar siz ikki yoshgacha bo'lgan ikki yoki undan ortiq bolangiz bilan sayohat qilsangiz, sizga havo kemasida 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga taqdim etiladigan kabi aviachipta narxida alohida joy beriladi.

2 dan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan parvozlar

2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun kattalar tarifining 75% to'lanadi. Bolalarga havo kemasida alohida o'rindiq va kattalarga ajratilgani kabi bepul bagaj normasiga ruxsat beriladi.

Bolaning ota-onasiz sayohati

16 yosh va undan katta bola kattalarsiz yolg'iz parvozga yuborilganda ota-onalar bolaning parvozi uchun notarial ishonchnoma rasmiylashtirishlari kerak. Bu holatda aviachiptaga to'liq haq to'lanadi.

Bolaning hamrohsiz parvozi quyidagi tarzda amalga oshiriladi: aviakompaniya xodimi bolani ota-onasidan oladi va u bilan birga ro'yxatdan o'tadi, so'ng uni havo kemasiga olib chiqadi. Havo kemasi sahnida yosh sayohatchini bortkuzatuvchi brigadiri nazorat qiladi va belgilangan joyga yetib borgach, bolani kutib oluvchi shaxsga topshiradi.

Aviakompaniya oyiga o'rtacha 16 000 kichik yo'lovchini bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo'yadi. Aviachiptani bron qilish vaqtida bolalar uchun odatdagagi taomlar o'rninga maxsus bolalar taomiga buyurtma berish mumkin. Parvoz paytida vaqt o'tkazish uchun havo kemalardagi multimedia ekranlarida joylashgan multfilmlar yoki o'yinlar yordam beradi. Eng yosh yo'lovchilar uchun, albatta, havo kema turidan kelib chiqqan holda, qulayroq parvoz uchun aviakompaniya belanchaklariga mutlaqo bepul buyurtma berish mumkin.

Uzbekistan Airways uchun hattoki kichik yo'lovchilar uchun ham xavfsiz va qulay parvozni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.



TRAVELING WITH CHILDREN

Summer is a time of vacation and travel. Children are free from school, this means you can go on a trip with the whole family. Since children start traveling on Uzbekistan Airways flights from infancy, here you can learn all the important information that will help you plan a vacation with children. First of all, please book the air ticket a few weeks before the flight, so you can find the most suitable fare for you.

There are no age restrictions on Uzbekistan Airways flights for flights with children. There are two separate fares for children: up to 2 years old and from 2 to 12 years old.



Traveling with children under 2 years old - infants

Such tickets will cost only 10% of the fare of an adult ticket. A separate seat for an infant is not provided, since most often children under two years of age travel in their parents' arms. The ticket price includes free baggage allowance - 10 kg (on Uzbekistan Airways Express flights - 5 kg) and hand luggage - up to 8 kg. If you are traveling with two or more children under two years, you will be provided with a separate seat in the aircraft at the same price as for a child between 2 and 12 years of age.

Traveling with children from 2 to 12 years old - children

The air tickets fare for children from 2 to 12 years old is 75% of the adult fare. Children are provided with a separate seat on the plane and free baggage allowance as an adult.


Traveling with a child unaccompanied by parents

If a child of 16 years and older is travelling alone without adults, a notarized power of attorney provided by parents is necessary. The air ticket is charged at full cost. The flight of an unaccompanied child goes by the following rules: an airline employee accompanies the child at checking and then delivers him on board. In the cabin, the young traveler is watched by a flight attendant, and upon arrival at the destination, the child is handed over to the meeting party. On average, the airline carries about 16,000 young passengers per month.

At booking an air ticket, you can order a special children's meal. There are multimedia screens in airplanes, which will help to have fun during the flight. And for babies, cradles can be ordered free of charge for a comfortable flight, if, of course, the type of the aircraft supports this option. It is important for Uzbekistan Airways to ensure a safe and comfortable flight even for young passengers.

O'ZBEKISTON BO'YLAB SAYOHATLAR

O'zbekiston buyuk ipak yo'lining xazinasidir, Samarqandning jo'shqin masjidlari va Buxoro karvonsaroylari, qadimiy Xiva va hozirgi poytaxt Toshkentdir. Saxiy oshxona, ajoyib sharoblar, samimiy va mehmondo'st odamlar.



✉ info@asiamice.uz

+998 99 591 55 77
+998 99 594 55 77

🌐 asiamiceuz

📞 asiamiceuz

ASIAMICE.UZ



SAMARQAND XALQARO AEROPORTI

Joriy yilning bahorida Samarqand shahrida xalqaro aeroportning yangi terminali ochildi, u Mirzo Ulug'bekning «Ziji Jadidi Ko'rragoniy» kitobidan ilhom olingan va burjlar belgilari aks ettirilgan ochiq turgan kitob shaklida qurilgan.

Bu davlat-xususiy shartnomasi asosida va xalqaro standartlar bo'yicha qurilgan ilk loyihadir. Yangi terminalning joylashishi tasodifiy emas edi. Samarqand - O'zbekiston Respublikasining ikkinchi poytaxti hisoblanadi, Samarqand aeroporti esa yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha Toshkent aeroportidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan xalqaro xab.

Samarqanddagi yangi terminal I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportiga kelayotgan yo'lovchilar oqimini kamaytirsh imkonini beradi. Muntazam aviaqatnovlar sonini 3 barobarga, o'tkazish imkoniyatini soatiga 1000 yo'lovchiga, yillik yo'lovchi tashish hajmini esa 2 million kishiga yetkazish rejalashtirilgan.



Yangi uchish-qo'nish yo'lagi, burlish yo'lkalari, 24 ta havo kemasiga mo'ljallangan turargohlar qurildi. To'rt qavatdan iborat terminal 29 ta ro'yxatga olish joyi, 8 ta havo kema sahniga chiqish yo'lagi, 4 ta trap, 10 ta pasport nazorati kabinasi va jo'nab ketayotgan yo'lovchilar uchun 6 ta E-gate, shuningdek, uchib kelgan yo'lovchilar uchun 15 ta pasport nazorati punktlarini o'z ichiga oladi. Butun ob'ektning hududi 9,06 hektarni tashkil qiladi.

Uzbekistan Airways' ning yo'lovchilari "Samarqand" xalqaro aeroportidan Toshkent, Istanbul, Olmaota, Moskva va Sankt-Peterburgga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirishlari mumkin. 2030-yilga borib aeroport o'zining yo'nalish tarmog'ini kengaytirishni va yo'nalishlar sonini 30 va undan ko'proqqa yetkazishni rejalashtirmoqda.

SAMARKAND INTERNATIONAL AIRPORT



In spring of the current year, a new terminal of the international airport was opened in Samarkand, it was built in the form of an open book with signs of constellations - the main work of Mirzo Ulugbek Zizhi zhadidi Kuragoniy (New Kuragoni astronomical table).



This is the first project built to international standards thanks to a public-private partnership agreement. The location for the construction of the new terminal was not a random choice. Samarkand is considered country's second capital, and Samarkand airport is the second international hub in terms of passenger traffic after the airport in Tashkent, therefore new terminal in Samarkand will help unloading the International Airport named after I. Karimov. It is planned that the number of regular flights will increase three times, the capacity - up to 1,000 passengers per hour, and the annual passenger flow - up to 2 million people.

A new runway, taxiways and apron for 24 aircraft stands were built. The four-story terminal itself consists of 29 check-in counters, 8 boarding gates, 4 ladders, 10 passport control booths and 6 E-gates for departing passengers, as well as 15 passport control booths for arriving passengers. The territory of the entire facility is 9.06 hectares.

From Samarkand International Airport, passengers of Uzbekistan Airways can regularly fly to Tashkent, Istanbul, Almaty, Moscow and St. Petersburg. By 2030, the airport plans to develop its route network and increase the number of destinations to 30 or more.

Matluba Kuliyeva

"PETROVICH" restoranida siz
orombaxsh vaqt o'tkazishingiz
va mualliflik oshxonasining mazali
taomlaridan bahramand
bo'lishingiz mumkin



In "PETROVICH" restaurant
you can have a good time and
enjoy delicious signature
dishes

SAMARQANDGA TASHRIF BUYURISH UCHUN

5 SABAB



Samarqand – nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi eng mashhur tarixiy shaharlardan biri hisoblanadi. Qachonlardir bu yerdan Buyuk Ipak yo‘lining karvonlari o‘tgan. Yana bu shahar Amir Temur sultanatining poytaxti bo‘lgan. Sohibqironning nevarasi Ulug‘bek bu shaharni Sharq ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirdi. Bu yerda o‘rta asrlarning YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan ko‘plab me’moriy obidalar saqlanib qolgan. Samarqandda – ma’naviy va tarixiy markazda – chinakam noyob, betakror joylarga tashrif buyurish mumkin.

REASONS TO VISIT SAMARKAND

Samarkand is one of the most famous historical cities in all of Central Asia. Ages past caravans of the Great Silk Road passed through here on their way from Europe to China. This city was the capital of the empire of Amir Timur (Tamerlane). Ulugbek, grandson of Tamerlane, made the city a center of scientific and cultural life of the East. Samarkand has preserved the architectural monuments of the Middle Ages, many of which are included in the UNESCO World Heritage List. Samarkand is a spiritual and historical center, where you can visit many unique places.



Samarqandda siz:

Registon – Samarqandning yuragidir. Maydonda uchta ulug'vor madrasa: Ulug'bek madrasasi (1417—1420 yy.), Sherdor madrasasi (1619—1636 yy.) va Tillakori madrasi(1646—1660 yy.) joylashgan. Ansamblning muhtashamligi uni Islom olami ulug'vor ijod namunalarining eng oldingi qatoriga qo'yadi.

In Samarkand you can:

Admire the architectural ensemble of Registan

The Registan is the heart of Samarkand. The square consists of three majestic madrassahs: Ulugbek Madrassah (1417-1420), Sher Dor Madrassah (1619-1636) and Tillya-Kori Madrassah (1646-1660). The splendor of the ensemble puts it in the first ranks of the greatest among all the majestic creations of the Islamic world.



2 XO'JA DONIYOR MAQBARASINI ZIYORAT QILISHINGIZ MUMKIN

Xo'ja Doniyor (Muqaddas Doniyol) maqbarasi Samarqanddagi eng mashhur ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. U Temur davrida qurilgan machitning o'rnidida, 1900-yilda qurilgan. Yahudiy tilidan tarjima qilinganda Doniyol "Alloh-qozi" degan ma'noni anglatadi. Bu joy nafaqat mahalliy fuqarolar, balki butun dunyodan tashrif buyuradigan ziyoratchilar uchun ham ziyorat maskani bo'lib, u xristianlar, musulmonlar va yahudiylar birdek hurmat bilan qaraydigan ziyoratgoh hisoblanadi.

Make a pilgrimage to Khoja Daniya Mausoleum


The Mausoleum of Khoja Daniyar (St. Daniel) is one of the most famous religious sites in Samarkand. It was constructed in 1900 on the place of the mosque of Tamerlane's time. Daniel means "God is judge" in Hebrew. This is a place of pilgrimage not only for locals but also for visitors from all over the world. It is treated with equal reverence by Muslims, Christians, and Jews.

Bu yer Islom olamining eng e'zozli ziyoratgohlaridan biri sanaladi. U Samarqand shahri yaqinida joylashgan. Bu yerda Islom dunyosining eng tanqli namoyandalaridan biri hisoblanmish Abu Abdulloh Muxammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Jufiy al- Buxoriyning maqbarasi joylashgan. Tarixdan ma'lumki, al-Buxoriy 870-yilda Buxorodan quvгин qilingan. Vafotidan keyin dunyo uni sunniy mazhabi hadislari to'plangan asosiy to'plamiga kiritilgan "Al -Jomiy as-sahix" hadislari asarining muallifi sifatida tanidi. Bugungi kunda al-Buxoriy memorial majmuasi – bu ulkan hududni egallagan ulug'vor inshootlar majmuyidir. Unga al-Buxoriyning xoki saqlanayotgan maqbara, masjid va xonaqo kiradi. Shuningdek, "Dorus-Hadis" ta'lim markazi joylashgan.

To see the Imam al-Bukhari Memorial Ensemble

The Imam al-Bukhari Memorial Ensemble is one of the most revered pilgrimage sites in Islam. It is located on the outskirts of Samarkand. Here is the tomb of Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail ibn Ibrahim al-Jufi al-Bukhari, an important religious figure in Islam. According to history, al-Bukhari was expelled from Bukhara in 870. After his death, the world learned of him as the author of the hadiths Al-Jami as-Sahih, which subsequently made it into the list of major Sunni hadith collections.

Today, Imam al-Bukhari's memorial complex consists of structures spread over a huge area. This includes Imam al-Bukhari's mausoleum where his ashes are buried, a mosque and khanaka, and the Dorus Hadith Educational Center.



4

Sharq bozori – bu umuman o'ziga xos muhit bo'lib, bu yerda qadimiy shaharning jonli manzarasiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Siyob bozori – Samarqanddagi eng qadimiy va eng katta bozor hisoblanadi, u Bibixonim masjidi bilan deyarli yonma-yon joylashgan. Bozorda siz turli iforlar va rang-barang meva, sabzavotlarni uchratasizki, qayerdan boshlashni ham bilmay qolasisiz. Bu yerda har xil shirinliklar, quruq mevalar, dorivor, shifobaxsh o'simliklar va autentik suvenirlarning (esdalik sovg'alar) juda ko'p turlari mavjud. Bozorga tashrif buyurib siz Samarqandning xushhol, sir-sinoatga to'la turmushiga sho'ng'iysiz, shahar nima bilan "nafas olayotganini" anglaysiz. Sarxil mevalar va mazali patirlar bilan birga siz bu yerdan Sharq hayotining bir bo'lagini o'zingiz bilan olib ketasizki, u sizning xotirangizda bir umr yoqimli esdalik bo'lib qoladi.

Shop at Siyab Bazaar

The Oriental market is a very special environment where you can best experience the vibrant atmosphere of the ancient city. Siyab bazaar is the oldest and largest bazaar in Samarkand, located literally next door to Bibi-Khanum mosque. Here you will be greeted with different smells and so many colorful fruits and vegetables that you will not know where to look. There is an extensive choice of different sweets, dried fruits, medicinal herbs and authentic souvenirs.

Visiting this bazaar, you will plunge into the atmosphere of Samarkand idleness, mystery and you will get a good understanding of the life and breath of the city. Along with juicy fruits and fresh uzbek bread, you will take away from this market a part of the oriental atmosphere, which will forever remain as a pleasant experience in your memory.

VINOCHILIK MUZEYIDA NAFIS ICHIMLIK TA'MINI TATIB KO'RISHINGIZ MUMKIN

Vinochilik muzeyi - bu haqiqiy muzeydan ko'ra degustatsiya zaliga ko'proq o'xshaydi. Markazida katta stol o'rnatilgan xonaga kirishdan oldin siz vinochilikda qo'llanilgan qadimiy asboblar namoyish etiladigan zallarni kezib chiqishingiz mumkin. Degustatsiya xonasida siz uzumdan tayyorlangan 10 ta turli xil ichimlik: quruq va desert navlardan tatib ko'rishingiz mumkin. Degustatsiya vaqtida siz O'zbekistondagi uzum navlari va ulardan ichimlik tayyorlash texnologiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Tasting the exquisite drink at the Museum of Winemaking

The winemaking museum is a living museum with a functioning degustation room. Before making a beeline to sampling room (recognizable by its large central dining table), you may wander through the halls where vintage winemaking tools are displayed. In the degustation room, you can taste 10 different drinks made from grapes: dry and dessert varieties. During the tasting you will receive information about grape varieties and technological production of wine in Uzbekistan.



**Toshkent – Samarqand – Toshkent yo'naliishi bo'yicha aviachiptalar
163 268 so'mdan (bagajsiz) va
186 592 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi**

**The fare of airline ticket
Tashkent - Samarkand - Tashkent starts from
14 EUR without luggage
16 EUR with luggage**

ANONS ANNOUNCEMENT

IYUL OYINING BIRINCHI HAFTASIDA
O'ZBEKISTONNING BARCHA
HUDUDLARIDA "XALQARO SHAXMAT
KUNI"GA bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tadi.

Tadbirda taniqli grossmeysterlar va shaxmat ustalari
ishtirok etadi. Mahalliy shaxmatchilar va chet elliq
sayyoqlar ishtirokida turli shaxmat tadbirlari tashkil
etilmoqda.

IN THE FIRST WEEK OF JULY, EVENTS DEDICATED TO THE "INTERNATIONAL CHESS DAY"

will be held in all regions of Uzbekistan. Various
chess events are organized with the
participation of local chess players and foreign
tourists.

20-IYUL KUNI TOSHKENT SHAHRIDA "MUZDAY – 2022"

Muzqaymoq va alkogolsiz ichimliklar festivali
bo'lib o'tadi.

ON JULY 20, THE FESTIVAL OF ICE CREAM AND SOFT DRINKS "MUZDAY-2022"

will be held in the city of Tashkent

2022-YIL IYUL OYIDA XURSHID SATTAROV VA DILSHOD ESHMATOVNING "XAYOLPARASTNING SAYRI" («ПРОГУЛКИ МЕЧТАТЕЛЯ»)

ko'rgazmasiga va Toshkentdagи Bonum Factum
galereyasida Argo zamonaviy san'at ko'rgazmasiga
tashrif buyurishingiz mumkin.

IN JULY 2022, YOU CAN VISIT THE EXHIBITION "DREAMER'S PROMENADES"

by Khurshid Sattarov and Dilshod Eshmatov and
the exhibition of contemporary art Argo in
Bonum Factum Gallery in Tashkent.



SAMARQANDDAN MAHALLIY VA XALQARO AVIAQATNOVLAR

DOMESTIC AND INTERNATIONAL FLIGHTS FROM SAMARKAND



BIZNING FLOT OUR FLEET

BOEING 757
BOEING 767
BOEING 787
AIRBUS 320
AIRBUS 321



PARVOZLAR FLIGHTS

REGULAR



safety • stability • comfort



ELEGANT LIFE IN THE CENTER OF TASHKENT

HASHAMATLI
HAYOT
POYTAXT
MARKAZIDA



AKAYCITY.COM

MAHSULOT SERTIFIKATSIZ ALANGAN · XIZMATLAR LITSENZIYALANGAN



INTERNATIONAL
PROPERTY
AWARDS
UZBEKISTAN
in association with

ace

CREATIVE STUDIO

2020-2021

Award Winner
Sustainable Development
Akay City by AKAY

Award Winner
Mixed Use Architecture
Akay City by AKAY

Award Winner
Residential High-Rise
Development

Mixed-Use Development
Akay City by AKAY

Apartment Development
Aksy City by AKAY

Sustainable Development
Akny City by AKAY

99 855 51 51
94 418 77 77